



Musiqiy asarlarda matn talaffuzi ustida ishlash

Diyora Yuldasheva

O'zDSMI "Vokal" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq va ifodalarning navbat bilan to'g'ri ishlaninshi, nutq texnikasi ustida ba'zi pedagogik va metodik uslublar orqali tug'ri talaffuzga erishish mashqlari. Vokal texnikasi asoslari orqali undosh va unli tovushlar matni ustida ish olib borish, tembr, dinamika, tovush ustida ba'zi masalalar kursattib, yoritilib o'tilgan.

Kalit so'zlari: tembr, dinamika, usul, tessitura, diapazon, tovush, melodik, suggestiv, intonatsiya, pauza.

Аннотация: В данной статье правильное употребление речи и выражений в свою очередь, упражнения для достижения правильного произношения посредством некоторых педагогических и методических приёмов по приёмам речи. Работая над текстом согласных и гласных через основы вокальной техники, преподаются и освещаются некоторые вопросы тембра, динамики и звука.

Ключевые слова: Тембр, динамика, приём, tessitura, диапазон, звук, мелодический, суггестивный, интонация, пауза.

Abstract: In this article, the correct use of speech and expressions, in turn, are exercises to achieve correct pronunciation through some pedagogical and methodological techniques for speech techniques.

Working on the text of consonants and vowels through the basics of vocal technique several issues of timbre, dynamics and sound are taught and covered.

Key words: Timbre, dynamics, techniques, tessitura, range, sound, melodic, suggestive, intonation, pause.



O'zbek tili Davlat tili maqomiga erishgandan so'ng o'zbek tili hamda uning nutq madaniyatiga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Lekin, filolog olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, bugungi kunda ham diktorglar, o'qituvchilar, lektorlar va jurnalistlar o'zbek tilining ohangi, pauza va mantiqiy urg'usiga har doim ham yetarlicha e'tibor qaratishmas ekan. Afsuski, bunday holatni kompozitorlarimizning vokal asarlarida ham ko'rishimiz mumkin.

So'zning, matnning intonatsion, ritmik yaxlitligidagi palapartishliklar va noaniqlik, ba'zan sintagmatik bo'linish notug'riligi mazmunni berishda buzilishlarga olib keladi, hamda aytilgan jumlaning ma'nosini idrok etishni qiyinlashtiradi. Bu esa o'z navbatida ijrochilarni tuzatishlar kiritishga majbur etadi, milliy tinglovchilarni esa u yoki bu vokal janrdan ixlosini qaytaradi.

Musiqashunoslikda so'z va kuyning mushtarakligi muammosini tahlil qilishda ikkita yo'nalish mavjud. Musiqada nutq ritmining aks ettirilishi birinchisi bo'lsa, ikkinchisi musiqiy va nutqiy ohangning o'zaro aloqalari bilan belgilanadi. Mazkur izlanishda asosiy e'tiborni musiqada nutq ritmining aks etish jarayoniga qaratganmiz. Bizdan oldin olib borilgan tahlillarga qarasak, o'zbek milliy vokal musiqasida erishilgan ulkan ijobiy yutuqlar qatorida etarlicha salbiy tendensiyalar ham uchray turadi. Misol uchun: nutqning sintagmasi buzilishi yoki nutq va musiqadagi urg'ularning bir-biriga mos kelmasligi, umuman olganda, o'zbek tilining orfoepik qoidalarini buzilish holatlarini kuzatish mumkin.

Matnni kuy bilan bog'lashda alohida e'tiborni ohangga, pauzaga, mantiqiy urg'uga qaratish darkor. Shunda o'zbek tili talaffuzining milliy xususiyati, o'ziga xos ohangdorligi muhim fonetik vositalar tizimi sifatida yorqin namoyon bo'ladi. Kompozitorlarning bu yo'nalishdagi yutuqlari umuman milliy o'zbek musiqasi taraqqiyotida katta sifat o'zgarishiga olib keladi.

Asarlarda talaffuzning rivojlantirishi uchun talaffuz mashqlarini o'rganish lozim. Bu mashqlar ikki turga bo'linib, birinchisi undosh aksentlar va unli aksentlar. Birinchisi til,



tish tomoq va lablar yordamida mashqlar qilinib undosh xarflar yorqin tembirda ijro etiladi. Qo'shiqchilik san'atida R va S xarflari yorqin, aniq va toza bo'lishi lozim, agarda bu xarflar suhbat davomida aniq va ravshan jaranglamasa unda biz asarlar ijro etishda asarning mazmuni va mohiyatini yo'qotib qo'yishimiz mumkin. Biroq, shuni unutmasligimiz kerakki, asar ijro etish davomida uning ovoz tembri, tessituras, diapazoni, usul, tovush, aniqligi va boshqa dinamikalar ustida batavsil ish olib borish lozim. Talabalar shuni unutmasligi kerakki, unli va undosh so'zlardan foydalanganda ovoz ohangining tubdan o'zgarib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Talabaning ijro nutqiga ega bo'lishi, ijro mahoratini puxta o'zlashtirilishining ta'minlash garovidir. Ijro davomida biror harf yoki tovushni noto'g'ri talafuz kilinishi asar mohiyatiga putr yetkazadi. Bir ohangdagi nutq-tezda charchatadi.

Ammo tadqiqotlarga ko'ra, bugungi eksperimental fiziologiya tovush sifatini o'zgartirish ehtimoli borligini tasdiqlaydi. So'nggi vaqtlarda nutq texnikasi rivojiga xissa qo'shadigan bir q'ator mashq komplekslari ishlab chiqilgan. Lekin ular asosan teatr pedagogikasi tajribasiga tayanilgan bo'lib, so'zlashuv vaqtida nafasni to'g'ri olish, tovush hosil qilish va uni o'z o'rnida ifodalash usullarini takomillashtiradi, bu esa o'qituvchining talabalarga o'z so'zi mazmunini batafsil va to'laqonli qilib yetkazishga imkon beradi.

Ma'lumki, nafas olish fiziologik jihatdan inson organizmga hayot beruvchi asosiy funksiyani ta'minlab beradi. Qolaversa nutqning ehtimoliy energiya bazasi vazifasini ham bajaradi.

a) So'zlayotganda nafas olish fonatsion nafas olish deb ataladi (rengo-tovush). Ayni jarayon bo'lgani uchun ham nafas olishda ortiqcha qiyinchilik tug'ilmaydi.

b) Tovush esa o'pkadan chiqayotgan havoning hiqildoqdan o'tishda ovoz pardalariga tegishi natijasida vujudga keladi.

Tovush o'zining quyidagi xususiyatlari bilan harakterlanadi:

– tovush kuchi-tovush apparati organlarining faol ishlashiga bog'liq.



Chiqarilayotgan havo oqimining tovush tirqishiga bo'lgan bosimi qancha katta bo'lsa, tovush ham shuncha kuchli bo'ladi;
tovush pardozi-tovushni uzoq masofaga uzatilishi va qattiqligini sozlay olishini bildiradi;
tovushning ixchamligi va harakatchanligi uning mazmuniga, tinglovchilarga moslab o'zgartira olish qobiliyatini bildiradi;

v) Aniq talaffuz qilish esa diksiya, deyiladi. Sohada talaffuzning har tomonlama aniqligi barcha uchun professional zarurat hisoblanib, o'qituvchi nutqini talabalar tomonidan to'g'ri tushunilishini ta'minlaydi. To'g'ri va aniq qilingan talaffuz aytilayotgan so'z, bug'in va tovushlarning mukammal va qat'iyligi bilan belgilanadi. U nutq apparati barcha a'zolarini (lablar, jag', tishlar, yumshoq va qattiq tanglay, kichik til, kyokirdak, tomoq orqa devori, tovush naychalari) birgalikda ishlashiga bog'liqdir. Til, lablar, yumshoq tanglay, kichik til, va pastki jag' nutqda faol ishtirok etadi. Shuning uchun ham ularni mashq qildirish muhim ahamiyatga egadir.

Talaffuz vaqtidagi aniqlik takomillashtirish-artikulyatsiya-nutq organlarini harakatlantirish orqali vujudga keltiriladi. Artikulyatsiya gimnastikasi ikki turga bulinadi. Birinchisi nutq apparatini dastlabki mashqlari va ikkinchisi har bir unli va undosh tovushlarni to'g'ri aytishga o'rgatuvchi mashqlar (ifodali o'qish, tez aytishlar).

g) Ritmika-bu ayrim so'z va bug'inlarning aytilish muddati va to'xtalishi, nutq va ifodalarning navbat bilan o'z o'rnida ishlatilishini bildiradi. Ritm nutqning eng asosiy qismidir, chunki «Nutq ohangi» va to'xtamlar ham tinglovchilarga beixtiyor o'zgacha hissiy tasir ko'rsatadi. K.S.Stanislavskiy «Quruq so'z» novdan tushayotgan no'xatdek yopirilib chiqadi, ma'noli so'z esa xuddi simob to'ldirilgan sharcha kabi asta-sekin shakllanadi. Berilayotgan bilimlarning qiyin qismini o'qituvchi asta-sekin tushuntiradi.

Haftasiga 15 km toza havoda yurish nutq texnikasining takomillashida muhim rol o'ynaydi

Ovozdan foydalanash va nutq texnikasi.



Nutq madaniyati yuqori, jarangdor va yoqimli ovozga ega bo'lgan notiq o'z o'quvchilarini shirador ovozi bilan asir etadi. Buning uchun o'qituvchi o'z ovozining kuchini, shiradorligini, yoqimlili ekanligini o'zi bilishi zarur. Agar lozim bo'lganda undan kerakli o'rinlarda foydalana olish malakasiga ega bo'lishi kerak. Ovozidagi ma'lum kamchilikni sezgan o'qituvchi esa uni bartaraf etish ustida ishlashi, kerak bo'lsa o'qib-o'rganishi lozim bo'ladi. Buning uchun ovozdan foydalanash va uni yaxshilash texnikasi ustida hamma vaqt uzluksiz mashq qilib borishi lozim bo'ladi.

Chunki bir-ikki mashq bilan ovozni yaxshilab bulmaydi. Bizdan oldingi tadqiqotlarga ko'ra, ijrochining ovozida quyidagi xususiyatlar bulmog'i lozim:

jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi);

keng diapazonlik (ovozning eng pastlikdan eng yuqorigacha bo'lgan darajasi);

havodorlik (yorkin so'zlaganda yaxshi eshituvchanlikka ega bo'lishi);

ixchamlik, harakatchanlik; chidamlilik (uzoq ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi);

moslashuvchanlik (dinamika, tembr, melodikaning eshtilish sharoitiga moslasha olishi);

arshi shovqinlarga nisbatan barqarorlik (halaqit beruvchi shovqinga tembr va tessituraning o'zgarib turishi);

suggestivlik (ovozning hayajon ifodalash va bu orqali, qanday so'z aytilayotganidan qat'iy nazar, tinglovchining xulqiga ta'sir qilish xususiyati).

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o'zbek milliy musiqasining rivojlanishi tarixi juda qadimga borib taqaladi. Jumladan, o'zbek san'atiga o'zining yuksak xissasini qo'shgan buyuk san'atkorlarimiz Xoji Abdulaziz Abdurasulov, To'ychi Xofiz Toshmuhammedov, Muhiddin Qoriyoqubov, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Saodat Qobulova, Xalima Nosirova kabi ustoz san'atkorlar ijodi bugungi kunda ham samarali davom ettirib kelinmoqda. Ularning maqsadlari o'zbek musiqasini saxna vositasi ila ommalashtirish, shuningdek, yevropa musiqa uslubida yaratilgan yangi asarlar orqali o'zbek musiqasini dunyo madaniyati miqyosiga olib chiqishdan iborat bo'ldi. Mustaqillik yillarida o'zbek ana'anaviy musiqasi, estrada san'ti, vokal ijrochilik uslublari



jadal rivojlanish yo‘lidan bormoqda. Bu rivojlanish jarayonida ana’anaviylikdan chekinmagan xolda zamonaviy uslublar o‘z aksini topayotir. O‘zbek san’atining rivojlanish dinamikasi bosqa sohalar qatori xukumatimiz tomonidan munosib rag‘batlantirilib kelinmoqda. Jumladan, ana’anaviy tarzdan o‘tkazib kelinayotgan «Sharq taronalari» musiqa festivali, yosh ijodkorlarni ma’naviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan «Nihol», Zulfiya mukofotlari, Nazira Ahmedova nomidagi respublika xotin-qizlari konkursi, Nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan tashkil etilayotgan turli tadbirlar, «Yangi avlod» tashabbuslari shular jumlasidandir.

Yoshlarning ma’naviy jihatdan qo‘llab quvatlanayotgani o‘z samarasini bermaoqda. Yosh ijrochilarning turli respublika va xalqaro konkurs va tanlovlarda sovrinli o‘rinlarni olib kelayotgani ko‘rsatilayotgan bu g‘amxo‘rlikning amaliy ifodasidir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
2. K. Nazarenko. Iskustvo penii.
3. P. Tronina. Iz opita pedagoga – vokalista.
4. Z. I. Anikiva. Narusheniye i vosstanovleniye lecheniye golosovogo – apparata.
5. M. Garsia. Polniy traktat ob iskusstve penii.
6. G. Nissen-Saloman. Shkola penii.
7. M.A.Xamidova. Aktёрское искусство узбекской музыкальной драмы. Ташкент. Издательство «Фан» 1987. С.148.
8. A.Korsakova. Узбекский оперный театр. Очерк истории.-Ташкент. Государственное издательство Художественной литературы. 1961. С.450.
9. T.Tursunov. Sahna va zamon.- Toshkent. “Янги асп авлоди”. 2007. Б.415.
10. T.A.Yuldashbaeva. Мастера узбекской сцены. -Ташкент. Издательство литературы и искусства им.Г.Гуляма.1985. С. 174.
11. A.Jabborov. O‘zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari.- Toshkent. 2018. С.432.